



## 2018 yil yanvar-iyun oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 765.2 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 44,0 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 144,8 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 403,1 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,8 foizni va norasmiy sektorlar tomonidan esa 318,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,4 foizni tashkil etdi.



**2018 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati %da**




**Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:**

- Chortoq tumanida (48,7 mlrd.so'm yoki 142,8 %) – kadast hujjatlariga asosan yakka tartibda qurib bitgazilgan turar-joy qurilishi bajarildi;
- Mingbuloq tumanida (25,4 mlrd.so'm yoki 131,1 %)- Mingbuloq tumanida kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hamda aholi tomonidan qurilgan turar joylar hisobiga amalga oshirildi;
- Pop tumani (63,9 mlrd.so'm yoki 125,2 %)- hududida avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash hamda aholi tomonidan qurilgan turar joylar hisobiga amalga oshirildi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Yangiqo'rg'on tumanida - 70,5% (56,9 mlrd.so'm), Norin tumanida – 96,6% (64,6 mlrd.so'm) qayd etildi.

## 2018 yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 20,4 %ini tashkil etdi, Namangan tumanida 11,3 %ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,3 %ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 4,4 % ni , Chust tumanida ushbu ko`rsatkich 6,1 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



## Mulkchilik shakllari


### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 715,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,5 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foiz punktga kamaydi.





## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.